

MAXMUDOVA Diyora Jamol qizi
 Oriental universiteti,
 Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
 diyorajafarovam@gmail.com

ARAB TILIDA PREFIKSATSIYA USULI BILAN OT YASALISHI

FORMATION OF NOUNS BY PREFIXATION IN ARABIC

ОБРАЗОВАНИЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ МЕТОДОМ ПРЕФИКСАЦИИ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Annotatsiya: Somiy tillar oilasiga kiruvchi arab tilida affiksatsiya usul boshqa so'z yasash usullariga qaraganda ancha keng tarqalgan bo'lib, yasama so'zlar asosan uch o'zakli fe'llardan hosil bo'ladi. Mazkur maqolada hozirgi arab adabiy tilida affiksatsiya usul bilan so'z yasalishi, tub va yasama so'z haqida ma'lumot berilib, prefiksatsiya ot yasovchi vositalar misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tub va yasama so'zlar, ot, affiksatsiya, prefiksatsiya, transfiksatsiya, infiksatsiya, suffiksatsiya va sirkumfiksatsiya, fe'l o'zak, ot o'zak, shaxs otlari, qurol otlari.

Аннотация: В арабском языке, который принадлежит к семейству семитских языков, аффиксация встречается чаще, чем другие способы словообразования и производные слова в основном образуются от трехкоренных глаголов. В данной статье дается информация об образовании слов аффиксальным способом в арабском литературном языке, о корневых и производных словах, на примерах анализируются префиксальные именные средства образования.

Ключевые слова: основа и искусственные слова, существительное, аффиксация, префиксация, трансфиксация, инфиксация, суффиксация, циркумфакция, глагольная основа, существительная основа, личные существительные, имена орудия.

Annotation: In Arabic, which belongs to the family of Semitic languages, affixation is more common than other ways of word formation and derivative words are mainly formed from three-root verbs. This article provides information on the formation of words by the affixal method in the Arabic literary language, on root and derivative words, and analyzes prefix nominal means of formation using examples.

Keywords: stem and artificial words, noun, affixation, prefixation, transfixation, infixation,

suffixation, circumflection, verbal stem, noun stem, personal nouns, tool names.

KIRISH

Arab tilida so'z turkumlari uchga: "fe'l", "ism" va "harf"ga [1:117] bo'linib, ism kelishikda turlanadigan, zamonga ishora qilmaydigan so'z turkumidir. Ism guruhiga o'zbek tilidagi ot, sifat, son kabi so'z turkumlari hamda, sifatdosh shakli kiradi. Arab tilida morfofologik usul bilan so'z yasashning affiksatsiya turi eng sermahsul so'z yasovchilardan biridir. Ismlar tarkibida affiksatsiya vazifasida keluvchi o'nta harfning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra ikki turi bor: 1) tarkibida affiksatsiya sifatida qayd etilgan o'nta harf bo'lmagan ism مجرد الاسم *al-ism al-mujarrad* – tub so'z; 2) o'zak morfemaga ushbu harflarning qo'shilishi orqali yasalgan so'zlar الاسم المزيد *al-ism al-mazid* – yasama so'zlardir. Bu ikki u tur orqali tilshunoslar affiksatsiya derivatsiya asosida so'z yasalishi jarayonini izohlaydilar [2:51]. Affiksatsiya vazifasida keluvchi harflar bir o'zi yoki shu guruhga kiruvchi boshqa harflar bilan birga o'zak morfemaga prefiks, infiks, suffiks, konfiks sifatida qo'shiladi. Shu bilan birga, arab tilida qisqa unlini ifodalovchi uch – *fathah* ("a"), *kasrah* ("i") va *damma* ("u") harakatlari so'z yasash jarayonida transfiksatsiya vazifasini bajaradi.

ASOSIY QISM

Arab tilida o'zak morfema tarkibidagi harflar ف *fā*, ع *ayn* va ل *lām* bilan belgilanib, birinchi o'zak harf *fāni*, ikkinchisi *ayni*, uchinchisi esa *lāmning* o'rnida turgan hisoblanadi. So'z yasash jarayonida prefiksalar o'zak morfemaga *fādan* oldin, infiksalar *ayndan* oldin yoki keyin, suffiksalar esa *lāmdan* keyin qo'shiladi.

Arab tilshunoslari ismlarning tub va hosila shakllari muayyan modellar asosida yasalgan, degan fikrni ilgari surganlar. Bu so'z vaznlari Farahidiy tomonidan tub va yasama so'zlarni bir-biridan farqlash uchun ishlab chiqilgan [3:17].

Arab tilida fe'ldan yasaluvchi so'zlar guruhiga sifatdoshning aniq va majhul daraja shakllari, aniq nisbat sifatdoshining mubolag'a shakli, sifat va uning qiyosiy-orttirma daraja shakli, o'rin-payt, qurol otlari kiradi.

Yasama so'zlar guruhiga kiruvchi ismlar 5 xil: prefiksatsiya, transfiksatsiya, infiksatsiya, suffiksatsiya va sirkumfiksatsiya usul asosida yasaladi. Ahamiyatli jihati shuki, infiksatsiya, suffiksatsiya va sirkumfiksatsiya usullarida so'z

yasalishida doimo transfixs vazifasida keluvchi qisqa unlilar ishtirok etib, yasama soʻzlarga kiruvchi ismlar guruhiga mansub soʻzlar ichida bir necha xil affiksatsiya usulida soʻz yasalishi sodir boʻlishidan dalolat beradi.

Hozirgi arab adabiy tilida affiksial usul bilan ot yasalishda oʻzakka affiks sifatida qoʻshiluvchi harflarning hammasi ham yangi maʼnoli soʻzlar yasamasligi, baʼzi affikslar soʻz yasovchi xususiyatini butunlay yoʻqotgani maʼlum boʻldi.

Hozirgi arab adabiy tilida affiksial usul bilan ot yasalishning prefiksatsiya turida *mīm*, infiksatsiyada esa *alif* va *yā* yakka holda, *alif* va *wāw*ning har ikkisi oʻzakning birinchi va ikkinchi harflariga alohida shaklda qoʻshilib keladi. Shu bilan birga *hamza*, *wāw*, *hā*, *nūn* affikslari ishtirokida soʻz yasalishi faqat klassik arab tiliga xosdir.

Affiksial ot yasalishida *mīm* prefiksi “a”, “i” va “u” qisqa unlilaridan biri bilan birga oʻzakka qoʻshilib keladi. Ushbu affiks feʼllarga qoʻshilib, asosan, shaxs otlari, otlarga qoʻshilib esa qurol otlari yasashga xizmat qiladi. Tarkibida *mīm* prefiks sifatida ishtirok etgan ot yasovchi vaznlarning 2 tasi qurol otlari, 2 tasi oʻrin-paytni bildiruvchi otlarni yasaydi.

1. Arab tilida *mi-* prefiksi bilan boshlanuvchi vaznlar asosdan anglashilgan ish-harakat uchun moʻljallangan narsani bildiruvchi otlar yasaydi. Odatda bu vaznda yangi soʻzlar feʼl oʻzakdan yasilib, ular koʻp hollarda qurol otlari, nisbatan kam hollarda sifat yasaydi. Bunday qurol otlari yasovchi vaznlarga *mifʼal* va *mifʼāl* vaznlari kirib, *mifʼal* vazni asosida soʻz yasalayotganda oʻzakning ikkinchi harfga tegishli qisqa unli “a”ga oʻzgartiriladi:

<i>mifʼal</i> (mi+C+CV+C)	
محلّب <i>mihlab</i> – sut	حلب <i>alaba</i> – sut
sogʻiladigan idish	sogʻmoq
مقاصّ <i>miqass</i> – qaychi	قصّ <i>qassā</i> – qirqmoq

1. *mifʼāl* vazni oʻzakning birinchi harfiga *mi-* prefiksi, ikkinchi harfiga infiks vazifasida kelayotgan *alif* qoʻshilishi orqali hosil qilinib, bu vazn qurol otlarini yasaydi:

<i>mifʼāl</i> (mi+C+CVV+C)	
مفتاح <i>muftāḥ</i> – kalit	فتح <i>fataḥa</i> – ochmoq
مقراض <i>miqrāḍ</i> – qaychi	قرض <i>qarāḍa</i> – qirqmoq
مصباح <i>miṣbāḥ</i> – chiroq	صبح <i>abaḥa</i> – tongda turmoq
مزمّر <i>mizmār</i> – sibizgʻa	زمر <i>zamara</i> – sibizgʻa

Qurol otlari yasayotganda, bu vazn yuqorida keltirib oʻtilgan *mifʼal* vazni bilan sinonim boʻlib kela oladi. *mifʼal* vazni asosida yasalayotgan har qanday hosila soʻzni *mifʼāl* shakliga ham qoʻyish mumkin [550:4]. Ammo, Abu Ali Forsiy, Ibn Yaʼish, Abu Hayyan kabi klassik davr arab tilshunoslari *mifʼāl* vaznida yasalgan har qanday soʻzni *mifʼal* vazniga solib boʻlmasligini aytishgan [550:4].

<i>mifʼāl</i> (mi+C+CVV+C)	Tarjima	<i>mifʼal</i> (mi+C+CV+C)
منقار <i>minqār</i>	daʼstaki soʻqa	منقر <i>minqar</i>
مفتاح <i>muftāḥ</i>	kalit	مفتاح <i>muftaḥ</i>
معوّال <i>miʼwāl</i>	ketmon	معول <i>miʼwal</i>
ميراد <i>mibrād</i>	egov	ميرد <i>mibrad</i>

Misollar:

ويتم استخدامها في كسر السطوح الصلبة ويستطيع في التربة التي لا يستطيع المجرفة الوصول إليها، كما يمكن تقسيم التربة الجافة باستخدام الطرف الحاد للمعول.

wa yatimmu istikhdāmuhā fī kasr al-suṭū ḥal-ṣulbah wa yaṣṭatīʼu fī al-turbat al-latī lā yaṣṭatīʼu al-mijraḥ al-wuṣūl ʼilayhā, kamā yumkin taqṣīm al-turbah al-jāffah bi istikhdām al-taraf al-ḥādd li al-miʼwal [6] – U qattiq yer sathini chopishda ishlatilib, lopatka chopmaydigan yerda ham qoʻllanadi, shuningdek, u *ketmonning* oʻtkir tarafi bilan quruq tuproqni ham maydalash mumkin.

مقص الشجر هو عبارة عن مقص خاص بعملية تقليم

الأشجار والفروع، وهو يتكون من الصلب أو المعدن

miqa ṣṣal-shajar huwa ʼibārah an miqass khā ṣṣbi ʼamaliyat taqlīm al-ʼashjār wa al-furūʼ, wa huwa yatakawwan min al-ṣulb aw al-maʼdin [5] – Tokqaychi daraxt va shoxlarni kesishga maxsus moʻljallangan *qaychidan* iborat boʻlib, u daʼstak va metallardan tuziladi.

Hozirgi arab adabiy tilida baʼzi qurol otlari *alif* va *wāw* infikslari ishtirok etgan faʼol *fāʼūl* vazni boʻyicha ham yasaladi. Masalan:

يعرف الحاسوب بأنه جهاز مُصمم لتنفيذ العمليات

والحسابات، بناءً على مجموعة من الأوامر والإرشادات...

yuʼraf al-hāsūb bi ʼannahu jihāz muṣammam li tanfīdh al-ʼamalīyāt wa al-ḥisābāt, bināʼan ʼalā majmuʼah min al-ʼawāmir wa al-ʼirshādāt [7] – *Kompyuter* buyruqlar va koʻrsatmalar komandasiga binoan hisobot va amaliyotlarni bajarish uchun moʻljallangan jihoz ekanligi bilan tanilgan.

يستخدم الناسوخ لبث واستقبال الصور. ولهذا، فإن

النواسخ تشبه آلات النسخ (التصوير) الصغيرة.

yashtakhdimu al-nāsūkh li bathth wa istiqlāl al-ṣuwar. Wa li hadha, fa'inna al-nawāsīkh tushbih ālāt al-naskh (al-taṣwīr) al-ṣaghīrah [8] – Faks suratlarini jo'natish va qabul qilish uchun qo'llangani uchun u kichik nusxa oluvchi apparatlarga o'xshaydi.

2. *maf'al* va *maf'il* vaznlari asosida o'rin-payt nomlarini bildiruvchi otlar yasali, hozirgi kelasi zamonda o'rta o'zak harfining qisqa unlisi "a" yoki "u" bo'lgan fe'llardan *maf'al*, "i" bo'lgan fe'llardan esa *maf'il* vaznida o'rin-payt otlari yasaladi [567,568,561:4]:

مكتب <i>maktab</i> – shug'ullanish xonasi	مَفْعَل <i>maf'al</i> (ma+C+CV+C)	كتاب/كتب <i>kataba/ yaktubu</i> – yozmoq
مخرج <i>makhraj</i> – chiqish joyi; chiqish		خرج/يخرج <i>kharaja/yakhruju</i> – chiqmoq
مدخل <i>madkhal</i> – kirish joyi; kirish		دخل/يدخل <i>dakhala/ yadkhulu</i> – kirmoq
مغرب <i>maghrib</i> – quyosh botish payti	مَفْعِل <i>maf'il</i> (ma+C+CV+C)	غرب <i>gharaba</i> – botmoq (quyosh)
موعد <i>maw'id</i> – muddat, va'da		وعد/يعد <i>wa'ada/ ya'idu</i> – va'da bermoq
معرض <i>ma'rid</i> – ko'rgazma		عرض/يعرض <i>'araḍa/ya'ridu</i> – ko'rsatmoq

2. *maf'al* va *maf'il* vaznlari arab tilida fe'l turkumidagi so'zlardan asosdan anglashilgan ma'noni bildiruvchi ish-harakat nomini yasashga ham xizmat qiladi:

ضرب *araba* – urmoq → مضرب *maḍrab* – urish ;

ذهب *dhahaba* – bilmoq → مذهب *madhhab* – bilish ;

ورد *warada* – kelmoq → مورد *mawrid* – kelish ;

فر *farra* – qochmoq → مفّر *mafarr* – qochish .

Misollar:
مقر الكونغرس الأميركي بمجلسيه النواب والشيوخ، ويعد أحد أبرز المعالم العمرانية بالعاصمة الأميركية واشنطن.

maqarr al-kūnghris al-'amīrkī bi majlisayhi al-nuwwāb wa al-shuyūkh, wa yu'idd 'ahad al-ma'ālim al-'umranīyah bi al-'āsimat al-'amīrkīyah wāshintun [9] – AQSH Kongressi qarorgohi o'z vakillar va senatorlar palatasi bilan birgalikda poytaxti Vashingtonda bo'ladigan eng ko'zga ko'ringan madaniy diqqatga sazovor joylarni tayyorlayapti.

عرض مكتب التحقيقات الفدرالي الأميركي (أف بي آي) مكافأة مالية بقيمة مليون دولار مقابل معلومات تؤدي إلى ضمان عودة عميل سابق له اختفى قبل خمس سنوات.

'*araḍa maktab al-tahqīqāt al-fidrālī al-'amīrkī ('af bī āy) mukāfa'at māliyah bi qīmat malyūn dūlār muqābil ma'lūmāt tu'addī 'ilāḍ imān 'awdat 'amīl sābiq lahu ikhtafā qabla khams sanawāt* [01] – Amerika Federal tergov byurosi (FTB) besh yil avval yo'qolgan sobiq agentini qaytarishni kafolatlaydigan ma'lumotlar evaziga bir million dollar qiymatidagi mukofot pulini taklif qildi.

XULOSA

Arab tilida affikslar so'zning boshi, o'rtasi va oxiriga qo'shilib, ular so'z tarkibida ba'zida yakka o'zi, ba'zida esa boshqa affiks vazifasida keluvchi harflar bilan birgalikda keladi. Arab tilida affikslar orqali so'zlarning turlanish va tuslanish jarayonlari ham ifodalanadi. Ba'zi affikslar nafaqat yozma, balki og'zaki nutq jarayonida ham so'z shakllarini yasashga xizmat qiladi. Yangi so'z va shakllarning yasashiga xizmat qiluvchi ushbu affikslar doim ham yangi ma'noli so'zlarni yasamaydi, balki ular gohida o'zakka uni muayyan bir arabcha vaznga solish uchun ham qo'shilib, hech qanday ma'no ifodalamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грандэ Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Второе издание. – Москва: Восточная литература, 2001. – 593 С.
2. Giselle Khoury. Vocabulary acquisition in arabic as a foreign language: The root and pattern strategy: PhD thesis, Applied Linguistics. – Boston University: Boston, 2008. – 304 P.
3. الميداني. نزهة الطرف في علم الصرف. – مطبعة الجوائب، قسطنطينية، 1298 هـ. – 194 ص
4. عبد اللطيف محمد الخطيب. المستقصى في علم التصريف. – الكويت: دار العروبة للنشر و التوزيع، 3002. – 5721 ص.
5. ادوات الزراعة واسماؤها مع الصور <https://www.almsal.com/post/736530>
6. انتشار بيع-أدوات-الفلحة-بالأسواق-الشعبية-بقنا-مع-قرب-3074305 // موسم/ <https://www.youm7.com/story/2020/10/26/>
7. ما-هو-جهاز-الحاسوب-وأهم-مكوناته <https://teqniyah.com/n>
8. فاكس <https://www.marefa.org/>
9. // الكابيتول-رمز-تاريخي-لصناعة-القرار <https://www.aljazeera.net/encyclopedia/2015/10/4/>
10. // مكافأة-أميركية-مقابل-معلومات-عن-عميل <https://www.aljazeera.net/news/2012/3/7/>